



SIYOSIY MENEJMENTDA KOMMUNIKATSION JARAYONLARINI BOSHQARISH

MARJONA ABDUJABBOROVA

O'zbekiston Milliy universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

“Siyosatshunoslik” yo'nalishi

3-bosqich talabasi

abdujabborova2007@icloud.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada siyosiy menejment tizimida kommunikatsion jarayonlarni boshqarishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Siyosiy boshqaruvda samarali kommunikatsiyaning qarorlar qabul qilish, manfaatdor tomonlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni ta'minlash, jamoatchilik bilan aloqalarni mustahkamlash hamda siyosiy institutlarning ochiqligi va hisobdorligini oshirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, siyosiy kommunikatsiyaning zamonaviy shakllari, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning siyosiy boshqaruv jarayonlariga ta'siri, axborot oqimlarini boshqarish mexanizmlari hamda kommunikatsion strategiyalarni ishlab chiqish masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari siyosiy menejmentda kommunikatsion jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish boshqaruv samaradorligini oshirish, davlat organlari va fuqarolar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash hamda siyosiy tizimning barqaror rivojlanishiga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: siyosiy menejment, siyosiy kommunikatsiya, kommunikatsion jarayonlar, boshqaruv, axborot oqimi, kommunikatsion strategiya, jamoatchilik bilan aloqalar, raqamli kommunikatsiya, siyosiy institutlar, boshqaruv samaradorligi.

Аннотация: В данной статье исследуются теоретические и практические аспекты управления коммуникационными процессами в системе



политического менеджмента. Раскрывается роль эффективной политической коммуникации в обеспечении результативности управленческих решений, координации взаимодействия между субъектами политического процесса, укреплении общественного доверия и повышении открытости и подотчётности государственных институтов. Особое внимание уделено современным коммуникационным технологиям, цифровым платформам и социальным сетям как важнейшим инструментам формирования общественного мнения и реализации политических стратегий. Проанализированы механизмы управления информационными потоками, особенности разработки коммуникационных стратегий, а также факторы, влияющие на эффективность политической коммуникации в условиях цифровой трансформации. Сделан вывод о том, что научно обоснованное управление коммуникационными процессами способствует повышению эффективности политического менеджмента, укреплению взаимодействия государства и общества, а также обеспечивает устойчивость и адаптивность современной политической системы.

Ключевые слова: *политический менеджмент, политическая коммуникация, коммуникационные процессы, управление, информационные потоки, коммуникационная стратегия, цифровые технологии, общественное мнение, государственное управление, политические институты.*

Abstract: *This article examines the theoretical and practical aspects of managing communication processes in political management. It highlights the role of effective political communication in improving the quality of managerial decision-making, coordinating interactions among political actors, strengthening public trust, and enhancing the transparency and accountability of public institutions. Particular attention is paid to modern communication technologies, digital platforms, and social media as key instruments for shaping public opinion and implementing political strategies. The study analyzes the mechanisms of information flow management, the development of communication strategies, and the factors*



influencing the effectiveness of political communication in the context of digital transformation. The findings demonstrate that scientifically grounded management of communication processes contributes to improving the effectiveness of political management, strengthening state–society interaction, and ensuring the sustainability and adaptability of contemporary political systems.

Keywords: *political management, political communication, communication processes, information flow management, communication strategy, digital technologies, public opinion, public administration, political institutions, governance effectiveness.*

Kirish

Zamonaviy dunyoda davlat va jamiyat oʻrtasidagi munosabatlarning samaradorligi koʻp jihatdan boshqaruv tizimida axborot oqimlarining qanchalik toʻgʻri va tizimli yoʻlga qoʻyilganligiga bogʻliq. Bugungi kunda siyosiy menejment shunchaki qarorlar qabul qilish yoki hokimiyat resurslarini taqsimlash mexanizmi boʻlib qolmay, balki fuqarolar, jamoatchilik va turli manfaatdor guruhlar bilan doimiy, ochiq hamda ikki tomonlama muloqotni yoʻlga qoʻyish sanʼatiga aylanmoqda. Ushbu jarayonning oʻzagida esa kommunikatsion jarayonlarni boshqarish masalasi yotadi.

Siyosiy boshqaruvda kommunikatsiya strategik manbaa boʻlib, u siyosiy institutlarning legitimligini taʼminlash, jamiyatda barqarorlikni saqlash va davlat organlariga boʻlgan ishonchni mustahkamlashda hal qiluvchi rol oʻynaydi. Ayniqsa, jamiyatni raqamlashtirish va globallashtirish sharoitida anʼanaviy OAV bilan bir qatorda ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar hamda raqamli platformalarning siyosiy jarayonlarga taʼsiri keskin ortdi. Bu holat siyosiy subyektlardan axborot oqimlarini tezkor, professional va ilmiy asoslangan holda boshqarishni talab etmoqda.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, zamonaviy siyosiy menejmentda strategik kommunikatsiyalarni toʻgʻri yoʻlga qoʻymaslik jamoatchilikda noaniqliklar, krizisli vaziyatlar va davlat hamda fuqarolar oʻrtasida uzilishlar (anglashilmovchiliklar) paydo boʻlishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, siyosiy kommunikatsiyaning



zamonaviy shakllari va mexanizmlarini chuqur tahlil qilish, samarali kommunikatsion strategiyalarni ishlab chiqish hamda axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari zamonaviy siyosatshunoslik fanining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Tadqiqotning maqsadi siyosiy menejment tizimida kommunikatsion jarayonlarni boshqarishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish, raqamli texnologiyalar davrida axborot oqimlarini samarali yo'naltirish mexanizmlarini hamda siyosiy institutlarning ochiqligi va hisobdorligini oshirishga xizmat qiluvchi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda, tadqiqotda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Siyosiy menejmentda kommunikatsiyaning nazariy-amaliy asoslari hamda uning qarorlar qabul qilish jarayonidagi o'rnini yoritib berish;
- Davlat organlari va jamoatchilik (PR) o'rtasidagi o'zaro hamkorlik hamda aks-sado (*feedback*) mexanizmlarini tahlil qilish;
- Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning zamonaviy siyosiy kommunikatsiyaga ta'sirini baholash;
- Siyosiy tizim barqarorligini ta'minlashda samarali kommunikatsion strategiyalarni shakllantirish bo'yicha amaliy takliflar berish.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Siyosiy menejment va siyosiy kommunikatsiya o'rtasidagi munosabatlar zamonaviy siyosatshunoslikda doimiy tadqiqot obyekti bo'lib kelmoqda. Siyosiy kommunikatsiyaning klassik nazariyasiga asos solgan Garold Lassuell (Harold Lasswell) o'zining mashhur "*Kim, nimani, qaysi kanal orqali, kimga va qanday samara bilan aytadi?*" degan besh bosqichli modelida axborot uzatishning maqsadli xarakterini ko'rsatib bergan edi [1]. Siyosiy menejment nuqtai nazaridan ushbu model axborot oqimlarini shunchaki tarqatish emas, balki uni muayyan siyosiy maqsadlarga erishish uchun boshqarish zarurligini anglatadi.



Keyinchalik Jürgen Habermas o'zining *"Kommunikativ harakat nazariyasi"* va *"Jamoatchilik maydoni"* (*Öffentlichkeit / Public Sphere*) konsepsiyasida davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi erkin, teng huquqli va ratsional muloqot siyosiy tizim legitimligining asosiy sharti ekanligini ta'kidlaydi [2]. Habermas fikricha, agar siyosiy menejment kommunikatsiyani bir tomonlama manipulyatsiya vositasiga aylantirsa, jamoatchilik maydoni inqirozga uchraydi va davlat institutlariga bo'lgan ishonch yo'qoladi.

Zamonaviy raqamli davrda siyosiy kommunikatsiyaning o'zgarishini Manuel Kastells o'zining *"Tarmoqlar jamiyati"* va *"Hokimiyat kommunikatsiyasi"* asarlarida chuqur tahlil qilgan. Kastells ta'kidlashicha, *"Hokimiyat odamlarning oshqozonida emas, balki ularning miyasidadir, demak, zamonaviy siyosiy hokimiyat tarmoqli kommunikatsiyani nazorat qilish va axborot oqimlarini yo'naltirish qobiliyati bilan belgilanadi"* [3].

O'zbekiston va MDH mamlakatlari olimlarining tadqiqotlarida ham siyosiy menejmentda kommunikativ transformatsiyalar faol o'rganilmoqda. Jumladan, A. Solovyev siyosiy boshqaruvda kommunikatsiyani davlat qarorlarini ishlab chiqish va ularni jamoatchilikka yetkazishning *"markaziy asab tizimi"* deb baholaydi [4]. Mahalliy siyosatshunoslar tadqiqotlarida esa raqamli OAV va ijtimoiy tarmoqlarning O'zbekistonda davlat organlari ochiqligini ta'minlash hamda *"Aholining davlat idoralari bilan ochiq muloqoti"* tamoyilini amalga oshirishdagi o'rni alohida e'tiborga olingan [5].

Ushbu tadqiqotda siyosiy menejment tizimida kommunikatsion jarayonlarni boshqarishning nazariy va amaliy mexanizmlarini baholash uchun tizimli va funksional yondashuv (D. Easton, G. Almond), kontent tahlil (Content Analysis), qiyosiy-siyosiy tahlil kabi kompleks metodologik usullar majmuasidan foydalanildi:

Muhokama va natijalar

O'tkazilgan tadqiqot va empirik ma'lumotlar tahlili siyosiy menejmentda kommunikatsiyani boshqarish borasida quyidagi muhim natija va tendensiyalarni aniqlash imkonini berdi:



- Axborot xabardorligining raqamli platformalarga ko'chishi: Siyosiy kun tartibini (*agenda-setting*) shakllantirishda an'anaviy OAVning ulushi keskin kamayib, messenjerlar (Telegram) va ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Instagram) asosiy axborot maydoniga aylandi.

- Inqirozli kommunikatsiya tezligining ortishi: Zamonaviy siyosiy menejmentda har qanday hodisaga rasmiy munosabat bildirishning "oltin soati" (birinchi 1 soat) tushunchasi paydo bo'ldi. Axborot vakuumining paydo bo'lishi zahotiyoq feyk va dezformatsiyalar bilan to'lishi kuzatildi.

- Aks-sado (*Feedback*) mexanizmlarining rivojlanishi: Siyosiy institutlarning samaradorligi endilikda nafaqat qaror qabul qilish, balki fuqarolarning e'tiroz va takliflariga qanchalik operativ munosabat bildirishiga qarab baholanmoqda.

Quyida an'anaviy siyosiy kommunikatsiya va zamonaviy raqamli siyosiy kommunikatsiyaning qiyosiy tahliliga ko'ra:

Tahlil me'zonlari	A'anaviy siyosiy kommunikatsiya	Zamonaviy raqamli siyosiy kommunikatsiya
Yo'nalishi	Bir tomonlama (Vertikal/ Top-down)	Ikki tomonlama, interaktiv (Gorizontal)
Munosabat tezligi	Sekin (kunlar, haftalar)	Operativ(daqiqalar, soatlar)
Jamoatchilik roli	Passiv axborot iste'molchisi	Faol content yaratuvchi va ishtirokchi
Boshqaruv maqsadi	Propaganda va xabardor qilish	Ishonch shakllantirish va dialog

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, siyosiy menejmentda kommunikatsiya shunchaki axborot uzatish texnikasi emas, balki siyosiy hokimiyatning legitimligi va barqarorligini ta'minlovchi strategik resursdir.



Manuel Kastells ta'kidlaganidek, raqamli davrda *"axborot oqimlarini nazorat qila olmagan siyosiy institutlar qaror qabul qilish vakolatiga ega bo'lsa-da, jamoatchilik qo'llab-quvvatlovidan mahrum bo'ladi"* [3]. Bugungi kunda O'zbekistonda ham, global miqyosda ham davlat va jamiyat muloqotida sifat o'zgarishi yuz bermoqda.

Olingan natijalar muhokamasi quyidagi uchta kritik masalani o'rta tashlaydi:

❖ **Reaktiv va proaktiv kommunikatsiya balansini ta'minlash:** Hozirgi siyosiy menejment ko'pincha yuzaga kelgan tushunmovchiliklar yoki inqirozlarga reksiya berish (*reactive*) bilan cheklanib qolmoqda. Biroq barqaror rivojlanish uchun uzoq muddatli, jamiyat kayfiyatini oldindan bashorat qiluvchi proaktiv strategiyalarni shakllantirish zarur.

❖ **Soxta axborotlar va manipulyatsiya xavfi:** Raqamli kommunikatsiyaning kengayishi bilan birga siyosiy sabotaj va feyk xabarlar ko'paydi. Bu esa siyosiy menejerlardan nafaqat PR, balki mediataktika va axborot xavfsizligini mukammal egallashni talab etadi.

❖ **Kadrlar va matbuot xizmatlari salohiyati:** Siyosiy institutlarning ochiqdigi faqatgina saytlarga xabar joylash bilan o'lchanmaydi. Matbuot kotiblari va strategik tahlilchilar qarorlar qabul qilish jarayonining bevosita ishtirokchisiga aylanishi lozim.

Xulosa

Ushbu tadqiqotda siyosiy menejment tizimida kommunikatsion jarayonlarni boshqarishning nazariy-uslubiy va amaliy jihatlari atroflicha tahlil qilindi. O'tkazilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy jamiyatda siyosiy kommunikatsiya shunchaki axborot tarqatish vositasi emas, balki davlat boshqaruvi samaradorligini ta'minlovchi, siyosiy institutlar legitimligini oshiruvchi hamda davlat va fuqaro o'rtasidagi ishonchni mustahkamlovchi strategik resursdir.

Tadqiqot davomida an'anaviy bir tomonlama axborot uzatish modellarining samaradorligi keskin pasayganligi va bugungi siyosiy menejment ijtimoiy tarmoqlar



hamda raqamli platformalar orqali amalga oshiriladigan interaktiv, ikki tomonlama muloqotga tayanishi zarurligi ko‘rinadi. Shu bilan birga, axborot oqimlarini proaktiv shaklda boshqarish, ya’ni vujudga kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy rezonanslar va inqirozlarni oldindan bashorat qilish hamda soxta xabarlariga tezkor raddiya berish siyosiy barqarorlikning muhim shartiga aylangan. Davlat organlarining axborot xizmatlari faoliyatini zamonaviy talablar darajasida tashkil etish fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi daxldorlik hissini oshiradi va qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtirokini ta’minlaydi.

Ushbu tahlillar asosida siyosiy menejmentda kommunikatsion jarayonlarni yanada takomillashtirish bir qancha yo‘nalishlarni talab etadi. Avvalo, siyosiy institutlarda axborot xizmatlari faoliyatini yuzaga kelgan hodisalarga shunchaki munosabat bildirish rejimidan uzoq muddatli, jamiyat kayfiyatini tahlil qiluvchi proaktiv strategiyalarga o‘tkazish zarur. Shuningdek, raqamli makonda jamoatchilik fikrini avtomatlashtirilgan tarzda tahlil qilish va fuqarolardan tushayotgan aks-sado mexanizmlarini keng joriy etish lozim. Shu bilan birga, siyosiy menejerlar va matbuot kotiblarining inqirozli vaziyatlarda boshqaruv hamda raqamli media borasidagi malakalarini tizimli oshirib borish amaliy ahamiyatga ega.

Umuman olganda, siyosiy menejmentda kommunikatsion jarayonlarni ilmiy hamda zamonaviy texnologiyalar asosida to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish jamiyat va davlat o‘rtasidagi masofani qisqartirishga hamda siyosiy tizimning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Lasswell, H. D. (1948). *The Structure and Function of Communication in Society*. The Communication of Ideas, 37, 215-230.
2. Habermas, J. (1989). *The Structural Transformation of the Public Sphere: An Inquiry into a Category of Bourgeois Society*. MIT Press.
3. Castells, M. (2009). *Communication Power*. Oxford University Press.



4. Соловьев, А. И. (2004). *Политическая коммуникация: учебное пособие*. Аспект Пресс.
5. Мухамедов, М., & Абдуллаев, Н. (2022). *Siyosiy menejment va davlat boshqaruvida raqamli transformatsiyalar*. Toshkent: "O'zbekiston Milliy universiteti" nashriyoti.